




# **SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

## **Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik 2022- yil yanvar-iyun**


# Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-iyun oylarida kichik  
tadbirkorlik subyektlarining  
YAHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAHM**dagi ulushi **75,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **12,2** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-iyunida **2,4** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **24,9** foizga kam demakdir.

**2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **812** ta, sanoatda **441** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **500** ta, qurilishda **173** ta, yashash va ovqatlanishda **155** ta, axborot va aloqada **30** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

97,6



Sanoat

37,4



Qurilish

92,7



Investitsiya

58,3



Savdo

92,1



Xizmatlar

65,1



Eksport

51,7



Import

65,1



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


25 962

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

2432

2022- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar



2022- yil yanvar-iyunida  
iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha faoliyat yuritayotgan  
kichik korxona va  
mikrofirmalar, % da

Savdo

34,3 %

Sanoat

18,0 %

Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi

14,7 %

Qurilish

11,2 %

Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar

6,9 %

Tashish va saqlash

3,2 %

Axborot va aloqa


1,3 %

Sog'likni saqlash va ijtimoiy  
xizmatlar ko'rsatish

1,5 %

Boshqa faoliyat turlari


8,9 %



2020- y. 2021- y. 2022- y.

Yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik  
korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida faoliyat  
yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar




## Shahar va tumanlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



## 2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Termiz shahri – 16,2 %, Denov – 11,9 %, Jarqo'rg'on – 7,7 %, Sherobod – 7,1 %, Boysun – 6,7 %, Qumqo'rg'on – 6,4 % va Sho'rchi – 5,5 % hissalariga to'g'ri keldi.





# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Ma'lumot uchun: 2022- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda  
812 ta

Sanoatda  
441 ta

Qishloq,  
o'rmon va  
baliqchilik  
xo'jaligida  
500 ta

Qurilishda  
173 ta

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 12,2 birlikni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra\*

2020- y.

10,1


2021- y.

11,7

2022- y.

12,2

2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida 26,3 birlik, Termiz shahrida 25,5 birlik, Qiziriq tumanida 14,6 birlik, Boysun tumanida 13,8 birlik va Sherobod tumanida 12,3 birlikni tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra\*

Eng yuqori ko'rsatkich  
Termiz tumani  
- 26,3 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich  
Bandixon tumani  
- 11,1 birlik.

Past ko'rsatkich  
Sariosiyo tumani  
- 8,8 birlik.

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi




2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 75,8 % ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-iyunida 76,8 %).

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 60,7 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 51,7 % ini tashkil etdi.



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bandixon tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida 100,0%, Oltinsoy tumanida - 100,0 % ni, eng past ko'rsatkich Jarqo'rg'on tumanida – 6,3 % ni tashkil etdi.



## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **64,8** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **65,1 %** ini tashkil etdi.



### 2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bandixon - 100,0 %, Boysun – 100,0 %, Qiziriq – 100,0 %, Muzrabot – 100,0 %, Oltinsoy – 100,0 %, Qumqo'rg'on – 100,0 %. Eng past ko'rsatkich Sariosiyo tumanida – 2,2 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




**2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1140,9** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (208,3 mlrd. so'm), Sho'rchi (121,0 mlrd. so'm), Muzrabot (121,0 mlrd. so'm), Denov (109,8 mlrd. so'm) va Qumq'o'rg'on (90,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Bandixon tumanida (18,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **37,4 %** ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon (100,0 %), Boysun (92,5 %), Angor (92,1 %), Oltinsoy (91,3 %), Muzrabot (88,4 %) va Sho'rchi (52,4 %), tashkil etdi. Jarqo'rg'on tumanida (11,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7489,9** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,1 %** ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,8 %** ga oshganligi kuzatildi.

## 2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov tumani (1753,9 mlrd. so'm), Termiz shahri (1268,4 mlrd. so'm), Sho'rchi (747,6 mlrd. so'm), Sherobod (432,2 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (430,9 mlrd. so'm) va Angor (360,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



hajm, mlrd. so'm

o'sish sur'ati, %


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2943,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **92,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **111,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (953,1 mlrd. so'm), Denov (295,3 mlrd. so'm), Sariosiyo (210,5 mlrd. so'm) Jarqo'rg'on (208,4 mlrd. so'm), Boysun (193,5 mlrd. so'm), Termiz (193,0 mlrd. so'm), Angor (157,5 mlrd. so'm) va Sherobod (131,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3858,3** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,1 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **110,6 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Termiz shahri (736,2 mlrd. so'm), Denov (474,1 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (248,1 mlrd. so'm), Sariosiyo (247,5 mlrd. so'm), Sherobod (243,7 mlrd. so'm), Sho'rchi (234,8 mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on (233,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## 2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




## 2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 82,9 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 89,6 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,2 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 % ni tashkil qildi.


2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,8 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,3 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1117** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 282 (25,2 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 742 (66,5 %) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 93 (8,3 %) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

**2022- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 7,5 % (84 ta), sanoatda - 15,2 % (170 ta), qurilishda - 13,2 % (148 ta), savdoda - 37,1 % (414 ta) va xizmatlar sohasida - 27,0 % (301 ta)ni tashkil etdi.




# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz shahri (198 ta), Denov (140 ta), Jarqo'rg'on (90 ta), Qumqo'rg'on (76 ta) va Sho'rchi (77 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



## 2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



## 2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydag o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 30,4 % ni, xizmatlarda 26,6 % ni, savdoda 26,3 % ni va sanoatda 25,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 82,1 % ni, sanoat sohasida 68,2 % ni va xizmatda 67,8 % ni tashkil etdi.

2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydag o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 52,0 % ni, sanoat sohasida 45,3 % ni, savdoda 43,7 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydag o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 67,9 % ni, xizmatda 55,5 % ni va sanoatda 50,0 % ni tashkil etdi.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Tel.: +998 (76) 225-65-68